

Boytilayev D.A., Mirzaahmedov H. S.

**MAGISTRATURA MUTAXASSISLIKLARIDA
ILMIY-PEDAGOGIK ISH VA MALAKAVIY AMALIYOTNI
TASHKIL ETISH BO`YICHA
USLUBIY QO`LLANMA**

Namangan - 2017

Mazkur uslubiy qo'llanmada magistratura mutxassisliklari o'quv rejasida nazarda tutilgan ilmiy-pedagogik ish va malakaviy amaliyotning mazmuni, bajarish mexanizmlari hamda baholashning reyting nazorat tizimi yoritilgan.

Mas'ul muharrir: Jumaxanov Sh. Z., geografiya fanlari nomzodi, dotsent (NamDU)

Taqrizchilar: Soliyev E.A., geografiya fanlari nomzodi, katta o'qituvchi (NamDU)

Nishonov M., pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (NamDU)

Namangan davlat universiteti O'quv-uslubiy kengashining 2017-yil 25 yanvardagi 5- sonli yig'ilish bayonnomasi qaroriga muvofiq nashr etishga ruxsat berilgan.

© Boytillayev D.A., Mirzaahmedov H. S., "Namangan", 2017.

1. ILMIY-PEDAGOGIK ISHNING MAQSADI, VAZIFASI, PREDMETI VA OBYEKTULARI

Ilmiy-pedagogik ishning maqsadi magistrantlarini zamon talablariga javob bera oladigan **ilmiy-pedagogik faoliyatga** tayyorlashdir.

Ilmiy-pedagogik ishning vazifasi qo'yilgan maqsadga, tegishli qonuniy-me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablarga asoslangan holda pedagogik malaka va ko'nikmalarga erishishni ta'minlashdan iborat. Bu vazifa magistrantlarning mutaxassislik kafedrasidan tayinlangan yuqori malakali ilmiy rahbarlar yordamida yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishni, o'quv jarayonida fanlardan olingan nazariy va amaliy bilimlarni tizimli-uslubiy ravishda ilmiy-pedagogik faoliyatga joriy qilish uchun ko'nikmalar hosil qilishni o'z ichiga oladi. Bunda magistrantlarga nazariy ta'lim jarayonida o'qitiladigan umummetodologik fanlardan «Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat», «Axborot tizimlari», «Ilmiy tadqiqot metodologiyasi» kabi fanlar nazariy-uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi. Ilmiy-pedagogik ishda magistrantlarning shu fanlardan olgan nazariy va amaliy bilimlari ilmiy rahbarlari yordamida amaliyotda sinab ko'rishga hamda ularni amalga oshirishga bevosita yordam beradi.

Ilmiy-pedagogik ishning predmeti ilmiy rahbar tomonidan beriladigan maslahatlar va yo'l-yo'riqlar asosida qo'yidagi ishlarni bajarish hisoblanadi. Shu bilan birga:

- mutaxassislik fanlari bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga tayyorlanish va ularni o'tkazish bo'yicha tajriba orttirish;
- ma'ruza matnlarini tayyorlash va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish bo'yicha masala (testlar, qiziqarli o'yinlar va h.k)lar to'plamini tayyorlash;
- bakalavriat yo'nalishlari talabalari bilan ishlash rejalarini tuzish va ularni amalga oshirish;
- yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini o'rganish va amalda qo'llash;

- talabalar bilimlarini reyting tizimi orqali nazorat qilishni o`rganish va qo`llash;
- talabalar mustaqil bilim olishining tashkiliy va o`quv-uslubiy ta'minotini o`rganish hamda ilmiy rahbar bilan birgalikda uni takomillashtirish bo'yicha faoliyat olib borish;
- talabalar orasida tarbiyaviy ishlarni olib borish;
- kafedra ishlarida ishtirok etish;
- me'yoriy hujjatlarni o`rganish va boshqalar.

Ilmiy-pedagogik ishning obyekti - mutaxassislik kafedralarining o`quv-uslubiy, ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy ishlari va rejalari, qonuniy-me'yoriy hujjatlar, o`quv-uslubiy ishlanmalar, bakalavriatura yo`nalishlari guruhlar, kafedra otalig`idagi kasb-hunar kollejlari, akademik letseylari, ularning o`quv va o`quv-uslubiy faoliyatlari hisoblanadi.

Aytib o`tish joizki, qo`yilgan maqsadga erishish, avvalo, undan kelib chiqadigan vazifalarni to`g`ri rejalashtirishga, ularni to`liq va o`z vaqtida bajarilishiga, shuningdek, kafedra mudiri, magistrantning ilmiy rahbari va magistrantning shaxsiy mas'uliyatiga bog`liqdir.

2. MAGISTRATURA MUTAXASSISLIGINING ILMIY-PEDAGOGIK ISH BO`YICHA MALAKA TALABLARI

– zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o`quv-tarbiya ishlarining interfaol usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko`nikmalarini shakllantirish;

– o`quv jarayonini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlashni tashkil etish, malaka va ko`nikmalarini hosil qilishi lozim; shuningdek:

– maxsus fanlar bo'yicha mashg`ulotlarning har xil turlari: ma'ruzalar, laboratoriya ishlari, amaliy va boshqa mashg`ulotlarni o`tkazish;

– ma'ruza matnlari va mashg`ulotlarni o`tkazish rejalarini tuzish;

– yangi pedagogik va axborot texnologiyalarni o`rganish va qo`llash;

– talabalar bilimini baholashda reyting-nazorat tizimini qo`llash;

- talabalar mustaqil ishini tashkiliy va o`quv-metodik ta`minlashni o`rganish;
- uslubiy ko`rsatmalarni tuzish;
- tarbiyaviy ishlarni o`tkazishni nazarda tutadi.

Shuningdek, magistr ilmiy-pedagogik ish natijalari bo`yicha:

- yangi pedagogik va axborot texnologiyalari, o`quv-tarbiyaviy jarayonini faollashtirish uslublari, talabalar bilimlarini reyting nazorat tizimida baholash;
- mustaqil o`qishning tashkiliy va o`quv-uslubiy ta`minoti, masofadan o`qitishning texnologiyalari;
- o`quv-uslubiy qo`llanmalarni yaratish asoslarini bilishi va ulardan foydalana olishi kerak;
- turli mashg`ulotlarni o`tkazish, ma`ruza matnlari va mashg`ulotlar o`tkazish rejalarini tuzish;
- talabalar bilimlari nazoratining tashkiliy va o`quv-uslubiy ta`minotini rejalashtirish;
- tarbiyaviy ishning tashkiliy va o`quv-uslubiy ta`minoti bo`yicha tajribaga ega bo`lishi kerak.

3. ILMIY-PEDAGOGIK ISH MAZMUNI

Ilmiy-pedagogik ish magistratura o`quv jarayonining muhim uzviy bo`lagi bo`lib, uning maqsadi oliy ta`lim muassasasida tayyorlanayotgan magistrantlarning egallangan ilmiy-nazariy bilimlarni bevosita amaliy tadbiq etib, ilg`or pedagogik texnologiyalar asosida bilim berish, pedagogik mahoratini egallashlarini ta`minlashdan iborat.

Magistrantlar ilmiy-pedagogik ishni bajarish davomida o`zlarining magistrlik dissertatsiyasini bajarish bilan birga pedagogik tajriba va ko`nikmalarni shakllantirishga ega bo`ladilar.

Universitet bo`yicha ilmiy-pedagogik ish o`tkazish davomida magistrantlarga quyidagi vazifalar qo`yiladi va ularning ilmiy rahbarlari tomonidan bevosita nazorat qilinadi:

I. Ilmiy-pedagogik ishni bajarish avvalida magistrantlar turli shakldagi darslarni tahlil qilib o`rganishlari lozim bo`ladi. Bundan ko`zlangan maqsad ta`lim jarayonini amalga oshirishning yanada mukammal metod va shakllarini o`zlashtirish orqali mashg`ulotlar mazmunini takomillashtirib borishdan iborat. Ilg`or tajribalarni o`rganish va tadbiq qilish o`quv-tarbiyaviy jarayonlar samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Shu sababli magistrantlar har bir tahlil qilingan mashg`ulotdan o`z bilim va tajribalarini boyitish uchun foydalanishi hamda ularni ommalashtirishga harakat qilmog`i lozim.

Darslarni tahlil qilishda quyidagilarga alohida e`tibor qaratiladi:

1. O`rganish uchun imkon darajasida o`zida ta`limning zamonaviy muammolari yechimini aks ettiruvchi mashg`ulotni tanlash.
2. Darsni kuzatishda asosiy e`tibor darsni baholash emas, balki magisrant shaxsiy tajribasini oshirishga qaratilishi.
3. Bir darsda aniqlangan tajribani boshqa mashg`ulotlarda qaysi darajada namoyon bo`lishi va o`ziga xosligiga e`tibor qaratish.
4. Qo`llanilayotgan metod va usullarning erishilgan natijalar bilan bevosita uzviy bog`liqlik omillarini aniqlash.
5. Aniqlangan amaliy tajribalarni nazariy manbalar asosida o`rganib, ularning asoslanganlik darajasini belgilash.

Darslarni tahlil qilishda amaliy, laboratoriya yoki seminar mashg`ulotlari ko`zda tutiladi (***dars tahlili varaqasining namunasi 1-ilova***).

II. Ilmiy-pedagogik ishni bajarish davomida magistrant ilmiy rahbari nazoratida biror mashg`ulot shakllari (ma`ruza, seminar, laboratoriya, amaliy) mavzusi bo`yicha dars ishlanmalarini tayyorlab, ilmiy rahbarga taqdim etadi (*Ilmiy-pedagogik ishni baholashning reyting tizimiga ko`ra belgilangan 100 balning maksimal 15 baligacha dars o`tgani uchun qo`yiladi*).

III. Har bir magistrant o`tkaziladigan o`quv ishlari bilan bir qatorda tarbiyaviy tadbirlarni ham talab darajasida amalga oshirish ko`nikmasiga ega bo`lmog`i lozim. Bu vazifani ilmiy-pedagogik ish jarayonida amalga oshirish uchun magisthantlar yo`nalish talabalariga auditoriyada va TTJda darsdan keyingi vaqtda tanlangan

mavzuda tarbiyaviy tadbir o'tkazadi. Ushbu tadbirning ishlanmasi va stsenariysi ilmiy rahbar tomonidan ko'rib chiqilib, tasdiqlangach uni o'tkazish sanasi va vaqti belgilab olinadi.

Agar o'tkaziladigan tadbir unda ishtirok etuvchi talabalar soni va miqyosiga ko'ra ikki va undan ortiq magistrantning birgalikda ish olib borishini talab qilsa, ilmiy rahbar va kafedra mudirining ruxsati bilan bitta tarbiyaviy tadbirni o'tkazilishi ikki va undan ortiq talaba uchun hisobga olinishi mumkin.

Shuningdek, magistrant o'zi tanlagan akadem guruhda murabbiylik soatini o'tkazadi.

IV. Magistrantlarning o'quv me'yoriy hujjatlarni o'rganish va taqriz qilish ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida ilmiy-pedagogik ish jarayonida kafedraning umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan ishchi dasturlarni o'rganish ko'zda tutiladi.

Bunda fanlardan ishchi dasturlarni o'rganish uchun quyidagi masalalarga e'tibor qaratiladi:

1. Ishchi dasturning tegishli davlat ta'lim standarti, o'quv rejalari hamda namunaviy dastur bilan mazmunan uzviyligi;
2. Ishchi dasturning tarkibiy tuzilmasi va mazmunining talabga javob berish darajasi;
3. Ishchi dasturda fanga ajratilgan umumiy soat, uning mashg'ulot tashkiliy shakllari bo'yicha taqsimoti;
4. Ishchi dasturda mavzular joylashtirilishining mantiqan izchilligi va ularga ajratilgan o'quv soatlarining maqsadga muvofiqlik darajasi;
5. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarning o'zaro uzviylik darajasi; ;
6. Berilgan nazorat savollarining fan mazmunini qamrab olganlik darajasi.
7. Adabiyotlar ro'yxatining ishchi dasturiga, chop etilish davri va ishchi dastur tiliga muvofiqligi.

Magistrant taqriz qilingan ishchi dastur taqrizini taqdim etadi.

V. Ilmiy-pedagogik ishni bajarish davomida magistrant umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan bir yoki ikkita o'quv adabiyotini tahlil qiladi va ularning kamida bittasiga annotatsiya tayyorlaydi. Annotatsiyada tahlil qilingan darslik yoki o'quv

qo'llanmaning qisqacha mazmuni va uning o'quv predmetiga mosligini ochib beradi (uning yutuq va kamchiliklari ochib berishi ham mumkin).

VI. Ilmiy-pedagogik ishning tasdiqlangan rejasiga ko'ra III-semestrda magistrant kafedrada yuritiladigan me'yoriy hujjatlarni o'rganadi. Kafedraga belgilangan topshiriqlar yuzasidan vazifalarning bajarilishini o'rganish ilmiy-pedagogik ishning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

VII. Elektron ishlanmalarni tayyorlashdagi vazifalar:

1. Magistrantning kompyuter savodxonligi darajasini belgilash va rivojlantirish.
2. Kafedraga tegishli fanlaridan elektron ishlanmalar bazasini kengaytirish.

Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda elektron ishlanma mavzusini magistrant ilmiy rahbar va kafedra mudiri bilan kelishgan holda belgilab oladi. Elektron ishlanma muayyan mavzudagi slaydlar majmuasi, elektron darslikning bitta mavzusini ishlab chiqish, kafedra fanlariga taalluqli jarayonlarning kompyuterli modeli va h.k. bo'lishi mumkin.

IX. Magistrantning ilmiy-pedagogik ishni bajarishi bo'yicha haftalik monitoring olib boriladi (**2-ilova**) va oy yakunida kafedra yig'ilishida hisobot topshiradi. Semestr yakunida ilmiy rahbar shu hisobot asosida 100 balli tizimda amalga oshirilgan ishlarni baholaydi.

Semestrlar bo'yicha Ilmiy-pedagogik ish hisobotlari A4 formatdagi qog'ozda qo'lyozma yoki kompyuterda umumlashtiriladi.

Tayyorlangan hisobot, avvalo, magistrant, ilmiy rahbar hamda kafedra mudiri tomonidan imzolanadi.

4. ILMIY-PEDAGOGIK ISHNI TASHKIL ETISH

Ilmiy-pedagogik ish asosan mutaxassislik kafedralari va ular tomonidan tayinlangan magistrantlarning ilmiy rahbarlari bilan birgalikda tashkil qilinadi hamda 1-2-3-semestrlarda magistrantning amaliy faoliyati shaklida amalga oshiriladi. Ilmiy-pedagogik ishni o'tkazishni tashkil qilish va amalga oshirish mutaxassislik kafedra mudiri va tayinlangan ilmiy rahbar zimmasiga yuklanadi. Buning uchun har bir kafedra o'ziga biriktirilgan magistrantlarni semestr oldidan ma'ruzachi va amaliyot

darslarini olib boruvchi yuqori malakali professor-o`qituvchilarga taqsimlaydi. Unga binoan magistrantlar ma`ruzachi va amaliyot darslari olib boruvchi professor-o`qituvchilarga «assistent»lik qiladilar va bu jarayon belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi. Magistrant Ilmiy-pedagogik ishni qayerda olib borishidan qat'iy nazar, tayinlangan ilmiy rahbarning davomat daftarida va kafedra ro`yxatida o`z aksini topishi, nazorat qilinishi, tasdiqlangan rejadagi unga tegishli barcha ishlar belgilangan tartibda va muddatlarda bajarishi shart.

O`quv rejasidan kelib chiqqan holda Ilmiy-pedagogik ish magistraturaning 1-2-3-semestrlarida uzluksiz amalga oshirilishi kerak. Bunda 1-semestr davomida o`quv jadvalida haftasiga 4 soat, 2-semestrda 3 soat, 3-semestrlarda esa 6 soatdan ajratiladi. Bu kunlari magistrantlar kafedra qaramog`iga berilib, ilmiy-pedagogik faoliyatni o`zlarining ilmiy rahbarlari boshchiligida va kafedra mudiri nazorati ostida tasdiqlangan rejaga binoan o`tishlari lozim.

5. ILMIY-PEDAGOGIK ISHGA SEMESTRLAR BO`YICHA AJRATILGAN SOATLARNING TAQSIMOTI

Semestr	Yuklama	O`quv rejada IPI uchun ajratilgan soat	Mustaqil ish
1	116	80	36
2	88	60	28
3	174	120	54
Jami	378	260	118

6. MAGISTRANTLAR TOMONIDAN BAJARILADIGAN ILMIY-PEDAGOGIK ISH MAZMUNI VA TAQSIMLANISHI

6.1. Magistrantlar bajaradigan ilmiy-pedagogik ishni semestrlar bo'yicha taqsimlanishi

1-SEMESTR

№	Bajariladigan ishlar nomi	soat
1	Ilmiy-pedagogik ishning maqsadi, vazifasi, obyekti va magistrantlarga qo'yiladigan talablarni o'rganish	2
2	Ta'lim sohasiga oid qonunlar va me'yoriy hujjatlar o'rganish	12
	O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunini o'rganish	4
	O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini o'rganish	4
	Magistratura to'g'risidagi Nizomni o'rganish	4
3	Universitetda bakalavriat va magistraturaga oid o'quv jarayoniga joriy qilingan me'yoriy hujjatlarni o'rganish	10
	O'quv rejaning tuzilishini o'rganish	2
	Fan dasturining tuzilishini o'rganish	2
	Ishchi dasturning tuzilishini o'rganish	2
	Guruh jurnallarining yuritilishini o'rganish	2
	Dars jadvalini o'rganish	2
4	Oliy o'quv yurti bakalavr yo'nalishida o'qitiladigan fanlar tizimini o'rganish	4
	Bakalavriat yo'nalishi o'quv rejasida o'qitiladigan fanlarni bloklarga ajratilishini o'rganish	2
	Bakalavriat yo'nalishi o'quv rejasida o'quv soatlarining ajratilishini o'rganish	2
5	Darslik va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash. Bakalavriat yo'nalishi uchun chop etilgan adabiyotlar, darsliklar bilan tanishib chiqish	14
	Fan dasturlarida tavsiya etilgan asosiy adabiyotlar ro'yxatini shakllantirish	2
	Axborot-resurs markazini umumkasbiy va mutaxassislik fanlariga oid o'quv adabiyotlari bilan ta'minlanganligini tahlil qilish	4
	Yangi chop etilgan darsliklar bilan tanishish	4
	Yangi chop etilgan o'quv qo'llanmalar va uslubiy ko'rsatmalar bilan tanishish	4
6	Ilmiy rahbar ish faoliyatini va dars beradigan fanlari bo'yicha yaratiladigan o'quv-uslubiy hujjatlarni tahliliy o'rganish.	16
	IPI rahbarining shaxsiy ish rejasi bilan tanishib chiqish	2
	IPI rahbari o'quv yuklamasi va dars jadvali bilan tanishish	2
	IPI rahbari o'quv yuklamasidagi fanlar bo'yicha tayyorlagan ishchi dasturlar bilan tanishish	2
	IPI rahbarining o'quv fanlari uchun tuzgan taqvim rejasini o'rganish	2
	IPI rahbarining yarim yillik va yillik hisobotlari bilan tanishib chiqish	2
	IPI rahbari tomonidan tayyorlangan O'UMLar bilan tanishib chiqish	6
7	Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga qatnashish va o'qituvchilarning pedagogik mahoratlarini o'rganish (semestr davomida kamida 5 ta ma'ruza, 5 ta amaliy mashg'ulotlar)	20
8	Ilmiy rahbar ajratib bergan mavzuga ma'ruza matni va amaliy mashg'ulot ishlanmasi tayyorlash	4

	Jami	80
--	-------------	-----------

2-SEMESTR

№	Bajariladigan ishlar nomi	soat
1	Umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bo'yicha o'quv uslubiy majmualar tayyorlash bo'yicha tajriba orttirish	8
	Kafedrada yangi talab asosida tayyorlanadigan O'Umlarni o'rganish	4
	Kafedrada yuqori kurslar uchun tayyorlanadigan O'Umlar tuzilishini o'rgansh	4
2	O'quv fanlaridan taqvim reja va ta'lim texnologiyalarini tayyorlash	6
	IPI rahbari tavsiya etgan fan bo'yicha taqvim reja tayyorlash	2
	IPI rahbari tavsiya etgan fan mavzulari bo'yicha ta'lim texnologiyasini tayyorlash (kamida 2 ta mavzuga)	4
3	Umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlarga tayyorlanish hamda ularni o'tkazish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar ishlanmalari, masalalar to'plami, qiziqarli o'yinlar tayyorlash	6
	Amaliy mashg'ulotlarga ajratiladigan o'quv soatlarini o'rganish	2
	Tavsiya etilgan amaliy mashg'ulot mazusi uchun dars ishlanmasi tayyorlash	4
4	Umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bo'yicha tayanch so'z va iboralar, savollar to'plami, testlar tayyorlash	6
5	Adabiyotlardan foydalanib yangi pedagogik texnologiyalar va dars o'tishning interfaol usullarini o'rganish	6
6	Axborot texnologiyalarini va darslarda texnik vositalaridan foydalanishni o'rganish	6
	Ta'lim portallari hamda sohaga oid internet saytlari bilan tanishish	4
	Kafedrada o'quv mashg'ulotlarida foydalaniladigan texnik vositalar bilan tanishish	2
7	Talabalarining mustaqil bilim olishini tashkiliy va o'quv uslubiy ta'minotini o'rganish	6
	Talabalar mustaqil ta'lim olishining maqsad va vazifalarini o'rganish	2
	Mustaqil ta'lim soatlarini ishchi dasturlarda aks etishini o'rganish	2
	Kafedrada talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish shakllarini o'rganish	2
8	Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabalarini o'quv malakaviy amaliyotini o'tkazishga rahbarlik qilishni o'rganish va ilmiy rahbar assistenti sifatida ularga rahbarlik qilish hamda malakaviy amaliyotlar yakuniy hisoboti himoyalarida yordamchi sifatida qatnashish	16
	Talabalarni malakaviy amaliyotga chiqarishga bag'ishlangan yig'ilishda qatnashish	2
	Malakaviy amaliyot dasturi bilan tanishish	2
	Malakaviy amaliyot obyektida amaliyot rahbari hamkorligida amaliyotga rahbarlik qiladi (kamida 2 kun).	12
	Talabalarining malakaviy amaliyotl bo'yicha yakuniy hisobotlarini qabul qilishda ishtirok etish	2
	Jami	60

3-SEMESTR

№	Bajariladigan ishlar nomi	soat
1	Kafedraning o`quv jarayoniga va ish faoliyatiga tegishli me`yoriy hujjatlarni o`rganish.	24
	Kafedra Nizomi va tarkibini o`rganish	2
	Kafedraning jihozlanishini o`rganish	2
	Kafedradagi ish rejalarini o`rganish	2
	Yo`nalish o`quv rejalarini o`rganish	2
	Bakalavriat yo`nalishi va magistratura mutaxassisligi DTSlari bilan tanishish	4
	Bakalavriat yo`nalishi, magistratura mutaxassisligi fan dasturlari va ishchi dasturlarni o`rganish	4
	“Vaqt me`yorlari”ni va shu asosda o`quv yuklamalarini taqsimlanishini o`rganish	4
	Kafedra pedagog xodimlarining shaxsiy ish rejalarining to`ldirilishini o`rganish	2
	Kafedrada yuritiladigan hujjatlar jamlanmasini (22 ta papka) o`rganish	2
2	Kafedrada ma`naviy-ma`rifiy ishlarni olib borilishi va kafedra yig`ilishi bayonnomalarini o`rganish	16
	Kafedraning ma`naviy va ma`rifiy ish rejasini o`rganish	2
	Kafedrada reja asosida o`tkaziladigan ma`naviy va ma`rifiy ishlarda qatnashish	2
	Kafedrada o`tkaziladigan yig`ilishlarda direktiv hujjatlar ijrosini va ko`riladigan masalalarni o`rganish	6
	Yig`ilish bayonnomalari bilan tanishish	6
3	Bakalavriat ta`lim yo`nalishlari talabalariga tanlangan o`quv predmeti mavzusi bo`yicha ma`ruza matni tayyorlash va ilmiy rahbar ishtirokida dars tashkil etish.	12
	Ma`ruza o`tiladigan fan bilan tanishib chiqish	2
	O`tiladigan mavzuga oid ma`ruza matnini tayyorlash	2
	Mavzug oid testlar, tayanch iboralar va nazorat savollari tuzish	2
	Mavzuga oid taqdimot tayyorlash	2
	Ta`lim texnologiyasini tayyorlash	2
	Belgilangan akademik guruhda ma`ruza mashg`ulotini o`tkazish	2
4	Bakalavriat ta`lim yo`nalishlari talabalarining pedagogik amaliyotini o`tkazishga rahbarlik qilishni o`rganish va ilmiy rahbar assistenti sifatida ularga rahbarlik qilish hamda amaliyot hisoboti himoyalarida qatnashish	16
	Pedagogik amaliyotga oid hujjatlar bilan tanishish	4
	Talabalarining pedagogik amaliyot hujjatlari bilan tanishish	4
	Talabalarining o`quv mashg`ulotlarini kuzatish	4
	Pedagogik amaliyot yakuni bo`yicha hisobotlarni qabul qilishda qatnashish	2
5	Fanlar bo`yicha talabalar bilimni reyting tizimi asosida baholash mezonlarini o`rganish	10
	Talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to`g`risidagi Nizomni o`rganish	4
	Kafedra pedagog-xodimlarining reyting nazorat ballarini jurnal va	2

	qaydnomalarga rasmiylashtirishlarini o`rganish	
	O`quv rejasidagi ixtiyoriy o`quv fanining reyting baholash me'zonlarini ishlab chiqish	4
6	Bakalavr ta'lim yo`nalishlari talabalarining kurs ishlarini bajarilishiga kurs ishi rahbarining nazorati ostida maslahatchi bo`lish, kurs ishlari himoyasida qatnashish	10
	Bakalavriat yo`nalishi o`quv rejalarida kurs ishlari rejalashtirilgan fanlar va kurs ishi banklarini o`rganish	2
	Talabalarga kurs ishlari rejalarini tuzish va bajarilishi bo`yicha maslahatlar berish	4
	Kurs ishlari himoyasida ishtirok etish	4
7	Kafedra professor-o`qituvchilari rahbarlik qilayotgan guruhlarda ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni olib borishni o`rganish va guruh rahbarlari nazorati ostida bu ishlarni tashkil etishda qatnashish	12
	Akademik guruhda ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo`yicha olib boriladigan ishlarni o`rganish	2
	Guruhning ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasini tahlil qilish	2
	Guruhda o`tkaziladigan ma'naviyat soatlarida ishtirok etish (kamida 3 marta)	6
	Guruh rahbari nazoratida ma'naviyat darsini o`tkazish	2
8	Kafedra qoshidagi o`quv to`garagi faoliyatini o`rganish va to`garak ishlarida qatnashish	10
	Kafedra qoshidagi o`quv to`garagi Nizomi va ish rejasi bilan tanishish	2
	O`quv to`garagi ish rejasi asosida to`garak ishlarida qatnashish (kamida 3 marta)	6
	To`garak rahbari nazorati ostida to`garak ishini yurgizish	2
9	Bitiruv-malakaviy ishlarga ilmiy rahbar bilan birga maslahatchi bo`lish	10
	Kafedrada shakllantrilgan BMI bankini o`rganish	2
	Bitiruvchi talabalarga biriktirilgan pedagog xodimlar tarkibi va ular rahbarlik qilayotgan talabalar tarkibini tahlil qilish	2
	IPI va BMI rahbari ishtirokida BMI loyihasi va topshiriqlar rejasini ishlab chiqishda ishtirok etish	2
	IPI va BMI rahbari bilan hamkorlikda talabaga ishini bajarish yuzasidan maslahatlar berib borish	4
	Jami	120

Ilmiy-pedagogik ishni bajarish uchun belgilangan vazifalar va ularni amalga oshirish

1-SEMESTR

№	IPI ni bajarish uchun belgilangan vazifalar	Amalga oshiriladigan ishlar	Reyting ballari
1	Ilmiy-pedagogik ishning maqsadi, vazifasi, obyekti va magistrantlarga qo'yiladigan talablarni o'rganish	Ilmiy-pedagogik ish magistratura o'quv jarayonining muhim uzviy bo'lagi ekanligini, uning maqsadi oliy ta'lim muassasasida tayyorlanayotgan magistrantlarning egallagan ilmiy-nazariy bilimlarini bevosita amalyotga tadbiq etib, ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida bilim berish ko'nikmasiga ega bo'lishni hamda IPI ni bajarish tartibini o'rganadi	6
2	Ta'lim sohasiga oid qonunlar va me'yoriy hujjatlarni o'rganish		15
	O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunini o'rganish	"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan sana, Qonunning maqsadi, uning nechta bob va moddalardan iboratligi, ta'lim tizimi, ta'lim turlari va boshqalarni o'rganadi	5
	O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini o'rganish	Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi qabul qilingan sana, uning tuzilishi, umuiy qoidalari, kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish omillarini, milliy dasturning maqsadi, vazifalari va uni ro'yobga chiqarish bosqichlarini, kadrlar tayyorlash milliy modeli va boshqalarni o'rganadi.	5
	Magistratura to'g'risidagi Nizomni o'rganish	Magistratura to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi qaror sanasi va raqamini o'rganish. Nizomda magistrlar tayyorlashga qo'yiladigan talablarni, magistrantlarining huquq va majburiyatlarini, magistraturada ta'lim jarayonini tashkil etishni, magistraturada pedagogik faoliyatga jalb etiladigan o'qituvchilarga qo'yiladigan umumiy malaka talablarini, mavzuni tanlash va ilmiy rahbarni tayinlashni, magistrlik dissertatsiyasining tuzilishi va uning mazmuniga qo'yiladigan talablarni, dastlabki va rasmiy himoyani o'tkazish tartibini, magistratura talabalari faoliyatini monitoringini, OTMda magistrlar tayyorlashni tashkil etish bosqichlarini hamda magistratura talabasining kalendar ish rejasini tuzilishini o'rganadi.	5
3	Universitetda bakalavriat va magistraturaga oid o'quv		

	jarayoniga joriy qilingan me'yoriy hujjatlarni o'rganish		20
	O'quv reja tuzilishini o'rganish	Namunaviy va ishchi o'quv rejalarni solishtirish, o'quv jarayoni jadvalini o'rganish	4
	Fan dasturi tuzilishini o'rganish	Fan dasturining tuzilishini o'rganish. Fanning nazariy va amaliy mashg'ulotlari hamda mustaqil ta'lim mazmunining berilishini o'rganish	4
	Ishchi dastur tuzilishini o'rganish	Ishchi dasturni rasmiylashtirilishini hamda fan dasturi asosida shakllantirilishini o'rganish. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarning fan uchun ajratilgan soatlarga taqsimlanishini o'rganish.	4
	Guruh jurnallari yuritilishini o'rganish	Jurnal titulidagi yo'riqnoma bilan tanishib chiqish. Jurnalga fanlar va fan o'qituvchisi to'g'risidagi ma'lumot tushiriladigan jadvalni o'rganish. Mashg'ulotlar uchun ajratilgan sahifalarda fan o'qituvchisiga tegishli qismlarni to'ldirishni o'rganish. Talabalar davomatini qayd etishni, reyting nazorat ballarini jurnalga rasmiylashtirishni o'rganish	4
	Dars jadvalini o'rganish	Yo'nalish va mutaxassislikda dars jadvalini tasdiqlanishini o'rganish. Dars jadvaliga o'quv rejasidagi fanlarni qo'yilishini o'rganish	4
4	Oliy o'quv yurtli bakalavr yo'nalishida o'qitiladigan fanlar tizimini o'rganish		6
	Bakalvriat yo'nalishi o'quv rejasida o'qitiladigan fanlarni bloklarga ajratilishini o'rganish	O'quv bloklari, fanlar va faoliyat turlarining nomlarini o'rganish, talabaning o'quv yuklamasida umumiy yuklamaga ajratilgan soatlarni o'rganish	3
	Bakalvriat yo'nalishi o'quv rejasida o'quv soatlarini ajratilishini o'rganish	Soatlarning kurs, semestr va haftalar bo'yicha taqsimotini o'rganish	3
5	Darslik va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash. Bakalvriat yo'nalishi uchun chop etilgan adabiyotlar, darsliklar bilan tanishib chiqish		15
	Fan dasturlarida tavsiya etilgan asosiy adabiyotlar ro'yxatini shakllantirish	Bakalvriat yo'nalishida o'qitiladigan fan dasturlarida tavsiya etilgan asosiy adabiyotlar ro'yxatini tuzish (eng kamida 4 ta umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan)	3
	Axborot-resurs markazini umumkasbiy va mutaxassislik fanlarini o'quv adabiyotlari bilan ta'minlanganligini tahlil qilish	ARMga borib bakalvriat yo'nalishi uchun tavsiya etilgan o'quv adabiyotlari katalogini tuzish	3
	Yangi chop etilgan darsliklar bilan tanishish	Bakalvriat yo'nalishi uchun tavsiya etilgan yangi darsliklar bilan tanishish	3

	Yangi chop etilgan o`quv qo`llanmalar va uslubiy ko`rsatmalar bilan tanishish	Bakalavriat yo`nalishi uchun tavsiya etilgan yangi o`quv qo`llanmalar, uslubiy qo`llanma va ko`rsatmalar bilan tanishish	3
6	Ilmiy rahbar ish faoliyatini va dars beradigan fanlari bo'yicha yaratiladigan o`quv-uslubiy hujjatlarni tahliliy o`rganish		18
	IPI rahbarining shaxsiy ish rejasini bilan tanishib chiqish	IPI rahbarining shaxsiy ish rejasining "Vaqt me'yorlari talablari asosida" to'ldirilishini o`rganish	3
	IPI rahbari o`quv yuklamasi va dars jadvali bilan tanishish	IPI rahbari shaxsiy ish rejasida o`quv yuklamani taqsimlanishi va uni dars jadvaliga qo'yilishini o`rganish	3
	IPI rahbari o`quv yuklamasidagi fanlar bo'yicha tayyorlagan ishchi dasturlar bilan tanishish	IPI rahbari o`quv yuklamasidagi fanlar bo'yicha tayyorlagan ishchi dasturlar tuzilishini o`rganish	3
	IPI rahbarining o`quv fanlari uchun tuzgan taqvim rejasini o`rganish	O`quv fanlari bo'yicha IPI rahbari tuzgan taqvim rejasida soatlar taqsimlanishi va uni rasmiylashtirishni o`rganish	3
	IPI rahbarining yarim yillik va yillik hisobotlari bilan tanishib chiqish	IPI rahbarining shaxsiy ish rejani bajarilishi bo'yicha yarim yillik va yillik hisobotlarini o`rganish	3
	IPI rahbari tomonidan tayyorlangan O`UMLar bilan tanishib chiqish	IPI rahbari tomonidan o`quv yili uchun tayyorlangan O`UMLar bilan tanishish. O`UMLarga qo'yiladigan talablar va ularning tarkibini o`rganish. Yangi O`UMLar tarkibini o`rganish	3
7	Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga qatnashish va o'qituvchilarning pedagogik mahoratlarini o'rganish (semestr davomida kamida 5 ta ma'ruza, 5 ta amaliy mashg'ulotlar)	Kafedra mudiri tuzib bergan grafik asosida malakali professor-o'qituvchilarning pedagogik mahoratini o'rganish va ilovadagi dars kuzatish qaydnomasini to'ldirish	10
8	Ilmiy rahbar ajratib bergan mavzuga ma'ruza matni va amaliy mashg'ulot ishlanmasi tayyorlash	Tanlangan o`quv fani mavzusi bo'yicha ma'ruza matni va amaliy mashg'ulot ishlanmasi tayyorlash (testlar, nazorat savollari, tarqatma materiallar bilan birgalikda).	10

2-SEMESTR

№	IPI ni bajarish uchun belgilangan vazifalar	Amalga oshiriladigan ishlar	Reyting ballari
1	Umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bo'yicha o'quv uslubiy majmualar tayyorlash bo'yicha tajriba oltirish		10
	Kafedrada yangi talab asosida tayyorlanadigan O'UMLarni o'rganish	O'UMLarning soni, rasmiylashtirilishi, uning takibiy tuzilishini o'rganish	5
	Kafedrada yuqori kurslar uchun tayyorlanadigan O'UMLar tuzilishini o'rganish	O'UMLarning soni, rasmiylashtirilishi, ularning takibiy tuzilishini o'rganish	5
2	O'quv fanlaridan taqvim reja va ta'lim texnologiyalarini tayyorlash		10
	IPI rahbari tavsiya etgan fan bo'yicha taqvim reja tayyorlash	Magistr IPI rahbari tomonidan tavsiya etilgan fan bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulot uchun ajratilgan soatlar asosida semestrda mo'ljallangan taqvim reja tuzadi	5
	IPI rahbari tavsiya etgan fan mavzulari bo'yicha ta'lim texnologiyasini tayyorlash (kamida 2 ta mavzuga)	Magistr IPI rahbari tomonidan tavsiya etilgan fan bo'yicha 1 ta ma'ruza va 1 ta amaliy mashg'ulot uchun ta'lim texnologiyasi tayyorlaydi.	5
3	Umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlarga tayyorlanish hamda ularni o'tkazish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar ishlanmalari, masalalar to'plami, qiziqarli o'yinlar tayyorlash		10
	Amaliy mashg'ulotlarga ajratiladigan o'quv soatlarini o'rganish	Magistr IPI rahbari tomonidan tavsiya etilgan fanlar soatiga amaliy mashg'ulot mavzularining taqsimlanishini o'rganadi	5
	Tavsiya etilgan amaliy mashg'ulot mazusi uchun dars ishlanmasi tayyorlash	IPI rahbari tomonidan tavsiya etilgan amaliy mashg'ulot mavzusi bo'yicha ikki soatlik dars ishlanmasi tayyorlaydi	5
4	Umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bo'yicha tayanch so'z va iboralar, savollar to'plami, testlar tayyorlash	IPI rahbari tomonidan tavsiya etgan fan bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar uchun bir necha variantda tayanch so'z va iboralar, nazort savollar to'plami, testlar tuzadi.	5
5	Adabiyotlardan foydalanib yangi pedagogik texnologiyalar va dars o'tishning interfaol usullarini o'rganish	Malaka oshirish kurslarida malaka oshirib kelgan pedagog xodimlar maslahatlari asosida	10

6	Axborot texnologiyalarini va darslarda texnik vositalaridan foydalanishni o`rganish		15
	Ta'lim portallari hamda sohaga oid internet saytlari bilan tanishish	Ta'lim portallari hamda sohaga oid internet saytlari katalogini tuzadi	10
	Kafedrada o`quv mashg`ulotlarida foydalaniladigan texnik vositalar bilan tanishish	Bakalavriat yo`nalishi o`quv jarayonida foydalaniladigan texnik vositalar ro`yxatini shakllantiradi va vazifalarini o`rganadi	5
7	Talabalarining mustaqil bilim olishini tashkiliy va o`quv-uslubiy ta'minotini o`rganish		15
	Talabalar mustaqil ta'lim olishining maqsad va vazifalarini o`rganish	O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish to'g'risida"gi 2009-yil 14-avgustdagi 286-sonli buyrug'ini o`rganadi	5
	Mustaqil ta'lim soatlarining ishchi dasturlarda aks etishini o`rganish	IPI rahbari tuzgan ishchi dasturlarda mustaqil ta'lim soatlarining ajratilishi va shunga mos holda mustaqil ta'lim mazmunining aks etishini o`rganadi	5
	Kafedrada talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish shakllarini o`rganish	Kafedra pedagog xodimlari tomonidan mustaqil ta'limni bajartirish shakllari va qabul qilish tartibini o`rganadi	5
8	Bakalavriat ta'lim yo`nalishlari talabalarini o`quv malakaviy amaliyotini o'tkazishga rahbarlik qilishni o`rganish va ilmiy rahbar assistenti sifatida ularga rahbarlik qilish hamda malakaviy amaliyotlar yakuniy hisoboti himoyalarida yordamchi sifatida qatnashish		25
	Talabalarni malakaviy amaliyotga chiqarishga bag'ishlangan yig'ilishda qatnashish	Kafedrada talabalarni malakaviy amaliyotga chiqarishga bag'ishlangan yig'ilishda qatnashadi va amaliyot hujjatlari bilan tanishadi.	5
	Malakaviy amaliyot dasturi bilan tanishish	Malakaviy amaliyot dasturini olib amaliyot davomida amalga oshiriladigan ishlarni o`rganadi	5
	Malakaviy amaliyot obyektida amaliyot rahbari hamkorligida amaliyotga rahbarlik qiladi (kamida 2 kun).	Malakaviy amaliyot obyektlariga borib amaliyot jarayonini va amaliyot hujjatlarini rasmiylashtirishini nazorat qiladi (kamida 2 kun).	10
	Talabalarining malakaviy amaliyotl bo'yicha yakuniy hisobotlarini qabul qilishda ishtirok etish	Talabalarining malakaviy amaliyot hisobotlarini qabul qilishda ishtirok etadi. Amaliyot natijalarini baholashni o`rganadi.	5

3-SEMESTR

№	IPIni bajarish uchun belgilangan vazifalar	Amalga oshiriladigan ishlar	Reyting ballari
1	Kafedraning o`quv jarayoniga va ish faoliyatiga tegishli me`yoriy hujjatlarni o`rganish.		26
	Kafedra Nizomi va tarkibini o`rganish	Kafedra nizomini tasdiqlanishini, nizomning umumiy qoidalarini, nizomga asosan kafedrani tashkil etish va boshqarishni, kafedra mudirining vazifalari va kafedra faoliyatini tashkil etishni o`rganish	2
	Kafedraning jihozlanishini o`rganish	OTM muassasalari va kafedralarida ish yuritish tizimini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan Yo`riqnomaga asosan kafedrada mavjud bo`lishi kerak bo`lgan stendlarni o`rganish (o`quv jarayoni, axlorqiy-tarbiya va ma`naviy-ma`rifiy ishlar, ilmiy tadqiqot ishlari, o`quv-uslubiy ishlar, ma`lumotlar, xabarlar, e`lonlar, kafedra a`zolari).	2
	Kafedrada ish rejalarni o`rganish	Kafedraning yillik ish rejasi, ilmiy ishlar rejasi, ma`naviy-ma`rifiy ishlar rejasi, nashr rejasi, ochiq darslarni tashkil etish va boshqa rejalar bilan tanishish,	2
	Yo`nalish o`quv rejalarni o`rganish	Yo`nalishda amal qilayotgan namunaviy va ishchi-o`quv rejalar soni va ularning tasdiqlanishini o`rganish. Umumiy yuklama hajmining bloklar bo`yicha soatlar va foizlarda taqsimlanishini o`rganish. O`quv bloklariga tanlov va maxsus fanlarning qo`yilishini o`rganish. Namunaviy o`quv rejasidagi soatlarning semestr haftalari bo`yicha mashg`ulot turlariga ajratilishini o`rganish	2
	Bakalavriat va magistratura mutaxassisligi DTSlari bilan tanishish	Bakalavriat yo`nalishi DTSni tasdiqlangan sanasini, ishlab chiqarish asoslarini, tarkibiy tuzilishini, malaka talablarini o`rganish.	4
	Bakalavriat, magistratura mutaxassisligi fan dasturlari va ishchi dasturlarni o`rganish	Magistratura mutaxassisligi hamda bakalavriat yo`nalishi o`quv rejalaridagi kafedraga tegishli fanlar dasturlarining ro`yxatini tuzish (tuzuvchi OTM, tasdiqlangan sanasi). Kafedrada mavjud barcha ishchi fan dasturlarini ko`rib chiqish. Muvaqqat dasturlar tuzishni	4

		o`rganish	
	“Vaqt me’yorlari”ni va shu asosda o`quv yuklamalarini taqsimlanishini o`rganish	Oliy ta’lim muassasasi professor-o`qituvchilar tarkibining o`quv, ilmiy-metodik, ilmiy-tadqiqot, ma’naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlar yuklamasini aniqlash qoidalari bilan tanishib chiqish. Oliy ta’lim muassasasi professor-o`qituvchilar tarkibining o`quv, ilmiy-metodik, ilmiy-tadqiqot, ma’naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlar hajmini ish turlari bo`yicha taqsimlanishini o`rganish	4
	Kafedra pedagog xodimlari shaxsiy ish rejalarining to`ldirilishini o`rganish	“Vaqt me’yorlari” talablari asosida shaxsiy ish rejalarda yillik yuklamani faoliyat turlari bo`yicha shakllantirilishini tahlil qilish.	2
	Kafedrada yuritiladigan hujjatlar jamlanmasini (22 ta papka) o`rganish	OTM muassasalari kafedralarida ish yuritish tizimini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan Yo`riqnoma bilan tanishish. Kafedraning ish faoliyati uchun zarur yig`ma jildlar va ularda hujjatlarning jamlanishini o`rganish	4
2	Kafedrada ma’naviy-ma’rifiy ishlarning olib borilishi va kafedra yig`ilishi bayonnomalarini o`rganish		8
	Kafedraning ma’naviy va ma’rifiy ish rejasini o`rganish	Kafedraning ma’naviyat va ma’rifat ishlari rejasida belgilangan ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy tadbirlar bilan tanishish. Ma’naviy va ma’rifiy ishlarni olib borishda kafedra pedagog - xodimlarining vazifalarini o`rganish	2
	Kafedrada reja asosida o`tkaziladigan ma’naviy va ma’rifiy ishlarda qatnashish	Semestr davomida yo`nalishda o`tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlarda ishtirok etish va hisobotlar tayyorlash	2
	Kafedrada o`tkaziladigan yig`ilishlarda direktiv hujjatlar ijrosini va ko`riladigan masalalarni o`rganish	Yuqori tashkilotlarning buyruq va ko`rsatmalarini kafedra yig`ilishida ijrosini ta’minlash bo`yicha amalga oshiriladigan ishlarni o`rganish	2
	Yig`ilish bayonnomalari bilan tanishish	Kafedrada rejadagi va navbatdan tashqari o`tkazilgan yig`ilishlar bayonnomalarining yozilishi bilan tanishish. Yig`ilish kotibi yordamida bayonnomalar yozishni o`rganish	2
3	Bakalavriat ta’lim yo`nalishlari talabalariga tanlangan o`quv predmeti mavzusi bo`yicha ma’ruza matni tayyorlash va ilmiy rahbar ishtirokida dars tashkil etish		15
	Ma’ruza o`tiladigan fan bilan tanishib chiqish	IPI rahbari tomonidan o`tiladigan ma’ruzalar bilan tanishishi	2
	O`tiladigan mavzuga ma’ruza matni tayyorlash	IPI rahbari bilan kelishgan holda ikki soatlik mashg`ulotga mo`ljallangan ma’ruza matni tayyorlash (ma’ruza matni ko`pi bilan 1 bosma toboq hajmda).	2

	Mavzug oid testlar, tayanch iboralar va nazorat savollari tuzish	O'tildaigan mavzuga oid 10 ta nazorat savollari, 10 ta testlar, 10 ta taynch iboralar, kamida 2 ta tarqatma materiallar tayyorlanadi	2
	Mavzuga oid taqdimot tayyorlash	Mavzuga oid slaydlar tayyorlash (kamida 8 ta slayddan iborat). Prezentatsiya slaydlari faqat matndan iborat bo'lib qolmasligi lozim. Ko'rgazmali, jadvallar, rasmlar, karta, chizma va multimediyali bo'lishi maqsadga muvofiq.	2
	Ta'lim texnologiyasini tayyorlash	O'tiladigan mavzuga tayyorlangan o'quv ta'lim vositalariga asoslangan holda ta'lim texnologiyasini tuzish	2
	Belgilangan akademik guruhda ma'ruza mashg'ulotini o'tkazish	Dars jadvali asosida belgilangan guruhda kafedra pedagog-xodimlari va magistrnlarni jabl qilgan holda ma'ruza mashg'uloti o'tkazish	5
4	Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabalarini pedagogik amaliyotini o'tkazishga rahbarlik qilishni o'rganish va ilmiy rahbar assistenti sifatida ularga rahbarlik qilish hamda amaliyot hisoboti himoyalarda qatnashish		10
	Pedagogik amaliyotga oid hujjatlar bilan tanishish	Amaliyot obyektlari bilan tuzilgan shartnoma, amaliyot dasturi, pedagogik amaliyotga chiqish to'g'risida bildirish va buyruqlar bilan tanishish	2
	Talabalarining pedagogik amaliyot hujjatlari bilan tanishish	Pedagogik amaliyot davomida amaliyotchi talabalar tomonidan amaliyot obyektlarida yuritiladigan hujjatlar bilan tanishish	2
	Talabalarining o'quv mashg'ulotlarini kuzatish	Pedagogik amaliyot obyektlarida amaliyotchi talabalar tomonidan tashkil etiladigan sinov darslarini tahlil qilish va muhokama jarayonida ishtirork etish (kamida ikki marta).	4
	Pedagogik amaliyot yakuni bo'yicha hisobotlarni qabul qilishda qatnashish	Kafedrada pedagogik amaliyot yakunlariga bag'ishlab o'tkaziladigan yig'ilishda qatnashish. Amaliyotchi talabalardan hisobotlarini qabul qilish jarayonlarini o'rganish.	2
5	Fanlar bo'yicha talabalar bilimni reyting tizimi asosida baholash mezonlarini o'rganish		6
	Talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi Nizomni o'rganish	Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida Nizomni tasdiqlangan sanasini, nazorat turlari va uni amalga oshirish tartibini, baholash tartibi va mezonlarini, nazorat turlarini o'tkazish muddatini, reyting natijalarini qayd qilish va tahlil etish tartibini o'rganish.	2
	Kafedra pedagog xodimlarining	Kafedrada o'qitiladigan fanlardan oraliq	

	reyting nazorat ballarini jurnal va qaydnomalarga rasmiylashtirishlarini o`rganish	va joriy nazoratlarni o`tkazilishi, ularni guruh jurnali va qaydnomalarga rasmiylashtirilishini tahlil qilish	2
	O`quv rejasidagi ixtiyoriy o`quv fanining reyting baholash me`zonlarini ishlab chiqish	O`quv rejasidagi ixtiyoriy o`quv fanining reyting tizimi bo`yicha nazorat turlaridan baholash me`zonlarini ishlab chiqish. O`quv soatlarini nazorat turlariga va soniga ajratish	2
6	Bakalavr ta`lim yo`nalishlari talabalarining kurs ishlarini bajarilishiga kurs ishi rahbarining nazorati ostida maslahatchi bo`lish, kurs ishlari himoyasida qatnashish		6
	Bakalvariya yo`nalishi o`quv rejalarida kurs ishlari ajartilgan fanlar va kurs ishi banklarini o`rganish	Kafedrada kurs ishlari bajartirish nazarda tutilgan fanlar bilan tanishishi. Kurs ishlari mavzulari bankini tahlil qilish. Kurs ishlari mavzulari sonining talabalar soniga nisbatan shakllantirilganini o`rganish	2
	Talabalarga kurs ishlari rejalarini tuzish va bajarilishi bo`yicha maslahatlar berish	Kurs ishini bajarish davomida talabalarga (eng kamida 3ta talabaga) kurs ishi rejasini tuzish va bajarish bo`yicha kurs ishi rahbari bilan hamkorlikda maslahatlar berish	2
	Kurs ishlari himoyasida ishtirok etish	Talabalar tomonidan bajarilgan kurs ishi himoyasida qatnashishi. Kurs ishini baholash me`zonlarini o`rganish	2
7	Kafedra professor-o`qituvchilari rahbarlik qilayotgan guruhlarda ma`naviy-ma`rifiy va tarbiyaviy ishlarni olib borishni o`rganish va guruh rahbarlari nazorati ostida bu ishlarni olib borishda qatnashish		10
	Akademik guruhda ma`naviy-ma`rifiy ishlar bo`yicha olib boriladigan ishlarni o`rganish	Akademik guruhlarda o`tkaziladigan "Axborot soatlari" va "Ma`naviyat soatlari"da guruh rahbari tomonidan olib boriladigan ishlar mazmuni va bayonnomalar bilan tanishish	2
	Guruhning ma`naviy-ma`rifiy ishlar rejasini tahlil qilish	Guruhning ma`naviy-ma`rifiy ishlar rejasida amalga oshiriladigan ishlar bilan tanishish va talabalar bilan ishlashni o`rganish	2
	Guruhda o`tkaziladigan ma`naviyat soatlarida ishtirok etish	Akademik guruhlarda o`tkaziladigan ma`naviyat soatlarida ishtirok etish (kamida 3 marta)	4
	Guruh rahbari nazoratida ma`naviyat darsini o`tkazish	Belgilangan mavzu doirasida guruh rahbari nazorati asosida ma`naviyat soatiga tayyorgarlik ko`rish va uni o`tkazish	2
8	Kafedra qoshidagi o`quv to`garagi faoliyatini o`rganish va to`garak ishlarida qatnashish		9
	Kafedra qoshidagi o`quv to`garagi Nizomi va ish rejasi bilan tanishish	Kafedra qoshidagi o`quv to`garagi Nizomi tasdiqlangan sana va tuzilishini o`rganish. To`garakni tashkil etish va	3

		boshqarishni, to'garak rahbarining vazifalarini, to'garak faoliyatini tashkil etishni o'rganish	
	O'quv to'garagi ish rejasi asosida to'garak ishlarida qatnashish	O'quv to'garagi ish rejasida yil davomida amalga oshiriladigan ishlar bilan tanishish. Reja asosida o'tkaziladigan to'garak ishlarida qatnashish (kamida 3 marta)	3
	To'garak rahbari nazorati ostida to'garak ishini tashkil qilish	To'garak rahbari nazorati ostida ish rejada belgilangan yoki shaxsiy tashabbus asosida to'garak ishi doirasida to'garak ishini tashkil etish (kamida 1 marta)	3
9	Bitiruv-malaka ishlariga ilmiy rahbar bilan birga maslahatchi bo'lish		10
	Kafedrada shakllantrilgan BMI bankini o'rganish	Bitiruv-malakaviy ishini bajartirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar va uslubiy ko'rsatmalar bilan tanishish. Kafedrada shakllantirilgan BMI mavzular sonini va talabalarga soniga nisbatan tanlash imkoniyatlarini tahlil qilish	2
	Bitiruvchi talabalarga biriktirilgan pedagog-xodimlar tarkibi va ular rahbarlik qilayotgan talabalar tarkibini tahlil qilish	Bitiruvchi talabalarga biriktirilgan pedagog-xodimlarning tarkibini, ularga biriktirilgan talabalar soninin hamda BMI mavzularining dolzarb muammolarga bog'ishlanganligi, mavzularni iste'molchi tashkilotlar muammolariga bog'langanligini tahlil qilish	2
	IPI va BMI rahbari ishtirokida BMI loyihasi va topshiriqlar rejasini ishlab chiqishda ishtirok etish	IPI rahbariga biriktirilgan bitiruvchilar BMI lari rejasi va bajarish bo'yicha loyihasini tuzishda ishtirok etish	2
	IPI va BMI rahbari bilan hamkorlikda talabaga ishni bajarish yuzasidan maslahatlar berib borish	BMI rahbari bilan hamkorlikda talabaga ishni bajarish grafigi asosida ishni bajarish va rasmiylashtirish yuzasidan maslahatlar berib borish (noyabr, dekabr, yanvar, fevral oylarida)	4

Izoh: Magistrlar har oy kafedra yig'ilishida ilmiy-pedagogik ishini bajarilishi bo'yicha hisobot berib borishlari shart.

7. ILMIY-PEDAGOGIK ISHNI BAHOLASHNING O`ZLASHTIRISH DARAJALARI

Ilmiy-pedagogik ish davomida magistrantlar faoliyatini nazorat qilish va baholash 100 ballik reyting tizimi asosida baholanadi. O`zlashtirish darajalari bo`yicha reyting ballari quyidagi tartibda qo`yiladi:

O`zlashtirish Ball hisobida	Baholash mezoni
86-100	Talaba ilmiy-pedagogik ish jarayonida ko`zda tutilgan barcha vazifalarni to`la, xatosiz, o`zlashtirgan bilimlarni mustaqil, dadil va to`g`ri tatbiq etgan holda, topshiriqlarni vaqt me`yori doirasida bajarishi, ta`lim metodlarini bilishi va ulardan o`rinli foydalanishi uchun qo`yiladi
71-85	Belgilangan vazifalarni ko`proq ilmiy rahbar maslahati va ko`rsatmalari asosida, tushungan holda to`g`ri va puxta, talab darajasida, vaqt me`yori doirasida bajarishi, ta`lim metodlarini bilishi va ulardan o`rinli foydalanishi uchun qo`yiladi
55-70	Vazifalarni tushungan holda, soddaroq va kamchiliklar bilan, o`z ishini tashkil qilishda shaxsiy tashabbussiz holda bajargani uchun qo`yiladi
0-55	Vazifalarni yetarlicha tushunmasdan, ilmiy rahbar tavsiya va ko`rsatmalaridan chiqqan holda xatolar bilan bayon qilish, olingan bilimlarni xatolarga yo`l qo`yib tatbiq etish, ta`lim metodlari mazmunini belgilash va aynan olingan vaziyatga ko`ra tanlashda zarur sifat ko`rsatkichlarini ta`minlay olmaslik uchun qo`yiladi

IPI rahbarlari har hafta va oyda magistrantning ilmiy-pedagogik faoliyati bo`yicha hisobot tuzishi va uni kafedraga topshirishi uchun mas`ul hisoblanadi Semestr yakunida ilmiy rahbar hisobotga taqriz yozib, baholaydi va kafedraga topshirilishini ta`minlaydi. Har bir semestr bo`yicha hisobot baholarini umumlashtirish, uni reyting daftarchasida va qaydnomada aks ettirish ham ilmiy rahbarning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Magistrantlar tomonidan Ilmiy-pedagogik ishni bajarilishini kafedradan magistratura mas'ul xodim (jamoatchilik asosida biriktirilgan) doimiy ravishda nazorat qilishi, kafedradagi nazorat daftarida qayd etib borishi, ish rejasidagi vazifalarni bajarmayotgan magistrantlar to'g'risida kafedra mudiri va magistratura bo'limiga ma'lumot berib borishi lozim.

Magistrantlarning ilmiy rahbarlari har oy Ilmiy-pedagogik ish bo'yicha topshirilgan hisobotlarni ko'rib chiqadi, kamchiliklarini ko'rsatadi, hisobotning qay darajada bajarilganligini nazorat qiladi.

Magistrantlarning ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarini o'tishi faqat ilmiy rahbarning ishtirokida amalga oshiriladi. Bu haqida kafedra mudirini ogohlantiriladi va u bilan kelishib olinadi. Ayrim hollarda magistratura bo'limi xodimlari bunday darslarda ishtirok etishlari va o'z baholarini qo'yishlari mumkin.

8. MALAKAVIY AMALIYOT MAZMUNI VA MEXANIZMI

8.1. Malakaviy amaliyotni tashkil etish

Malakaviy amaliyot mutaxassislik kafedralari va ular tomonidan tayinlangan magistrantlar ning ilmiy rahbarlari bilan birgalikda tashkil qilinadi hamda 4-semestrda magistrantning amaliy faoliyati shaklida amalga oshiriladi. Malakaviy amaliyotni o'tkazishni tashkil qilish va amalga oshirish mutaxassislik kafedراس mudiri va tayinlangan rahbar zimmasiga yuklanadi. Magistrant malakaviy amaliyotni qaerda olib borishidan qat'iy nazar, tayinlangan rahbarning davomat daftarida va kafedra ro'yxatida o'z aksini topishi, nazorat qilinishi, tasdiqlangan rejadagi unga tegishli barcha ishlar belgilangan tartibda va muddatlarda bajarishi shart.

Malakaviy amaliyot magistratura o'quv jarayonining muhim bo'lagi bo'lib, uning maqsadi mutaxassis sifatida tayyorlanayotgan magistrantlarning egallangan ilmiy-nazariy bilimlarini bevosita amaliy tadbiq etib, ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida bilim berish pedagogik mahoratini egallashlarini ta'minlashdan iborat bo'lgan ilmiy faoliyat blokidagi ilmiy-pedagogik ishning uzviy davomi hisoblanadi.

Bugungi kunda zamon talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat ta'lim standartlari asosidagi ta'lim va tarbiya berish, uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan

dolzarb masalalardan biridir. Zero, mamlakatimizda ta'lim-tarbiya va ilmiy-pedagogik tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg'unlashtirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim tizimida yuqori ko'rsatkichlarga erishishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda yuqori malakali va raqobatbardosh mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta'lim va tarbiya berish tizimi o'tkazilayotgan islohotlar talablari bilan chambarchas bog'lanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Malakaviy amaliyot natijasida bitiruvchida bevosita ta'lim standarti talablariga muvofiq mustaqil ishlash, o'zlashtirgan nazariy bilimlarini chuqurlashtirish va mustahkamlash, jamoada tashkilotchilik va tarbiyaviy ishlar olib borish bo'yicha tajriba hosil qilish, oliy ta'limda ilmiy va pedagogik faoliyat olib borish ko'nikmalari shakllantiriladi.

OTMda o'tkaziladigan malakaviy amaliyot davrida magistr talabalar kaferada o'qitiladigan fanlarga biriktiriladi va shu bo'yicha o'quv-uslubiy faoliyatda ishtirok etadi. Belgilangan **8 hafta davomida** magistrantlar bakalavr ta'lim yo'nalishida amaliy, laboratoriya, seminar mashg'ulotlarini taqvim rejalarga muvofiq tarzda olib boradilar. O'quv uslubiy majmualarni qayta yaratish va yangilash jarayonida zamonaviy va ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llagan tarzda o'z xissasini qo'shishi kerak. OTM bo'yicha malakaviy amaliyot o'tkazish davomida magistrantlarga bir qator vazifalar qo'yiladi va ularning ilmiy rahbarlar va kafedradagi malakaviy amaliyot bo'yicha mas'ul shaxs tomonidan bevosita nazorat qilinadi:

Malakaviy amaliyot davrida magistr:

- mutaxassislik fanlari bo'yicha olgan nazariy bilimlarni chuqurlashtirish va ularni malakaviy amaliyot davrida mustahkamlash;
- kafedraning boshqaruv tuzilishini o'rganish;
- kafedra rahbarlari va mutaxassislarning xizmat vazifalarini o'rganish;
- amaliyot dasturida ko'zda tutilgan topshiriqlarni to'liq bajarishi;
- amaliyot davrida kafedraning ichki mehnat tartib qoidalariga bo'ysunishi;
- amaliyot rahbariga barcha topshiriqlarni bajarilishi haqida yozma ravishda

hisobot berishi shart.

Malakaviy pedagogik amaliyot talabani:

- ixtisoslik fanlari bo'yicha turli mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha tajriba orttirishini;
- ma'ruzalar matnlari va mashg'ulotlar o'tkazish rejalarini tuzishini;
- yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini o'rganishi va qo'llashini;
- talabalar bilimlarini reyting nazorat qilish tizimini o'rganishi va qo'llashini;
- talabalar mustaqil bilim olishining tashkiliy va o'quv-uslubiy ta'minotini o'rganishini;
- uslubiy ko'rsatmalarni ishlab chiqishini;
- tarbiyaviy ishlarni olib borishi va boshqalarni ko'zda tutadi.

O'quv rejasidan kelib chiqqan holda malakaviy amaliyot magistraturaning 4-semestrda haftasiga 16 soatlik ish hajmi asosida amalga oshirilishi kerak

Har bir magistr amaliyot natijasi bo'yicha tasdiqlangan rejaga asosan hisobot tayyorlaydi va uni kafedrada himoya qiladi. Himoya qilinadigan hisobot dekanatning maxsus qaydnomasida aks ettiriladi. Himoya qilingan va topshirilgan hisobotlar magistratura bo'limiga topshiriladi.

Hisobotlar mavjudligi va topshirilishiga amaliyot rahbarlari shaxsan javobgardir.

8.2. OTMda malakaviy amaliyotni tashkil etishda amalga oshiriladigan ishlar va ularning taqsimoti quyidagicha tavsiya etiladi

№	Bajariladigan ishlar	Muddati	Ish hajmi (soat)
1	O'quv dasturida keltirilgan malakaviy amaliyotning maqsadi, vazifasi va talab me'yorlarini o'rganish	1- hafta	8
2	Ta'lim sohasiga oid qonuniy-me'yoriy hujjatlarni (klassifikator, bilim va ta'lim sohalarini) chuqur o'rganish	1- hafta	8
3	Biriktirilgan fanlarning (ko'pi bilan 2 ta) o'quv-uslubiy majmualarini o'rganish	2- hafta	8
4	Universitetdagi bakalavriatura va magistratura o'quv jarayoniga oid joriy qilingan me'yoriy hujjatlarni o'rganish va ularga amal qilish	2- hafta	8
5	Fan o'qituvchilari va guruh murabbiylari ish	3- hafta	16

	faoliyatini, dars berish mahorati va uslubini, u dars berayotgan fanlar bo'yicha me'yoriy hujjatlarini tahliliy o'rganish, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda muntazam ishtirok etish		
6	Malakaviy rahbar o'qitadigan fanlardan mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish, mashg'ulotlarni olib borishni o'rganish (mavzular bo'yicha ma'ruza matni, amaliy mashg'ulot ishlanmalari, ta'lim texnologiyalari, taqdimotlar, nazorat savollari, testlar va boshqalar tayyorlash)	4-hafta	16
7	Kafedra pedagog-xodimlari rahbarlik qilayotgan guruhlarda tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borish	5- hafta	16
8	Malakaviy amaliyot rahbari nazorati ostida ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish	6- hafta	16
9	Ma'ruza yoki amaliy mashg'ulot doirasida ochiq dars tashkil etish va o'tkazish	7 -hafta	16
10	Amaliyot natijalarini umumlashtirish va hisobot topshirish	8- hafta	16
	jami	8	128

Izoh:

1. Hisobotda qilingan ishlar va ular bo'yicha erishilgan natijalar, ma'lumotlar, taqrizlar, olingan baholar, foydalanilgan adabiyotlar (jumladan, me'yoriy hujjatlar) keltiriladi hamda yangi pedagogik va informatsion texnologiyalar qo'llanilganligi to'g'risidagi namunalar ko'rsatiladi;

2. Magistrantlar malakaviy amaliyot rahbari mashg'ulotlaridan tashqari, boshqa pedagog-xodimlarning darslarida ham ishtirok etishlari mumkin;

3. Magistrant malakaviy amaliyot rahbari yoki boshqa professor-o'qituvchining nazorati ishtirokida 6-, 7-haftalarida kamida to'rt juftlikdan iborat amaliy darslarni, uch juftlik ma'ruza darsini olib borishi mumkin. Bu darslarga ilmiy rahbar tomonidan qo'yilgan baholar talabaning hisobotlarida keltiriladi. Shuningdek, amaliyotning 7-haftasida 1 marta ochiq dars tashkil etib beradi.

8.3. Malakaviy amaliyot hisobotining shakli quyidagilardan iborat bo'ladi:

1. Titul varag'i (1-ilova);
2. Kirish (1-2-bet);

3. Malakaviy amaliyot ish rejasi;
4. Amaliyot rahbarining xulosalari va taqrizlari;
5. Magistrantning darslarga qatnashish natijalari bo'yicha tahliliy materiallar;
6. Bajargan ish natijalari (ilovalar bilan);
7. Bajargan ishlarga ilovalar (masalalar yoki testlar to'plamlari, sinov savollari, ma'ruza matnlari, o'quv uslubiy namunalar, lug'at va boshqalar);
8. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;
9. Mundarija

Malakaviy amaliyotni o'taydigan magistrant va uning rahbariga asosiy qo'yiladigan talablar ushbu o'quv dasturidan kelib chiqadi. Bunda ular ushbu o'quv dasturida keltirilgan me'yorlarga amal qilishlari va rejada ko'rsatilgan barcha ishlarni to'liq va o'z vaqtida bajarishlari lozim.

9. MAGISTRANTLARNING MALAKAVIY AMALIYOTINI BAHOLASH

9.1. Magistrantlarning malakaviy amaliyotini reyting tizimi asosida baholash ballari

	4-semestr
Maksimal ball	100
Saralash balli	55
A'lo	86-100
Yaxshi	71-85
Qoniqarli	55-71
Qoniqarsiz	54 ball va undan kam

Himoya qilinib baholangan hisobotlar magistratura bo'limida alohida magistrantlarning malakaviy amaliyotini baholash qaydnomasida qayd qilib umumlashtiriladi.

Magistr qaysi mavzular bo'yicha ma'ruza matnini yozishi va «Sinov ma'ruza»sini qachon o'tkazishi amaliyot rahbari hamda kafedra mudiri bilan kelishadi. Mutaxassislik kafedrasi tomonidan magistrantlarning ichki tartib-intizomga rioya qilishlari nazorat qilinadi hamda magistrantda pedagog xodimga xos bo'lgan

xulq-atvor, kiyinish madaniyati va atrofdagilar bilan bo'ladigan munosabat shakllantiriladi.

9.2. Malakaviy amaliyotni baholashda quyidagi mezonlar va ballar taqsimoti tavsiya etiladi

T.r	Faoliyat turi	Ball
1	Yangi pedagogik texnologiyalarning qo'llash malakasini egallaganligi uchun	15
2	Metodik tavsiyanomalar yaratish asoslarini bilishi hamda mashg'ulotlar uchun metodik tavsiyanoma yaratganligiga	15
3	Ma'ruza matni tayyorlab dars o'tganligi uchun (kamida ikkita)	10
4	Seminar, amaliy mashg'ulot va laboratoriya mashg'ulotlariga ishlanma tuzganligi, takomillashtirganligi va dars tashkil etganligi uchun	10
5	Talabalar bilimini baholashning reyting tizimini o'rganganligi va amalda tadbir etganligi uchun	10
6	Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etganligi uchun	5
7	Kafedra yig'ilishlarida ishtirok etishi, muhokamalarda qatnashganligi (kafedra yig'ilishi bayonnomasi asosida)	5
8	Magistrantlarning jamoat ishida qatnashishi: Kafedrada: Dekanatda: Universitetda;	5 3 2
9	Tayyorlagan ma'ruza matni bo'yicha kafedra a'zolarining ishtirokida ochiq dars o'tganligi uchun. (bayonnoma ko'chirmasi hisobotga ilova qilinadi)	10
10	Ma'naviy-ma'rifiy va tashkiliy ishlardagi ishtiroki uchun	5
11	Malakaviy amaliyot hisobotini namunali tayyorlaganligi uchun	5
	Maksimal ball	100

DARS TAHLILI VARAQASI

1. Yo`nalish nomi _____
2. Tahlil o`tkazilgan sana _____
3. Fan nomi _____
4. Fan o`qituvchisi _____
5. Dars shakli _____
6. Dars mavzusi _____
7. Dars tashkiliy qismi: _____

8. Darsning kirish qismi: _____

9. Darsning asosiy qismi: _____

10. O`tilgan mavzuni mustahkamlash _____

11. Darsda qo`llanilgan metodlar: _____

11. Darsda foydalanilgan jihozlar: _____

12. Talabalarni baholash tartibi _____

13. Darsning o`ziga xosligi _____

14. Xulosa _____

Fan o`qituvchisi _____

(f.i.sh., imzo)

Magistrantning rahbari _____

(f.i.sh., imzo)

Magistrant tomonidan IPI bajarilishining haftalik monitoringi**Mutaxassislik** _____**Kurs** _____**Semestr** _____**Magistrantning F.I.O.** _____

№	IPI amalga oshirilgan sana	Magistrant tomonidan IPI bo'yicha hafta mobaynida amalga oshirilgan ishlar mazmuni	IPI rahbari imzosi
1			
2			
3			
4			
5			
6...			

Kafedra mudirining xulosasi: _____

F.I.O._____
SANA_____
IMZO**Magistratura bo'limi boshlig'ining xulosasi:** _____

F.I.O._____
SANA_____
IMZO

Ilmiy-pedagogiki ishni tashkil etish uchun me'yoriy hujjatlar va adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". "O'zbekiston". - Toshkent: 1997.
2. Ta'lim to'g'risidagi Qonun. -T.:, 1997.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Magistratura to'g'risidagi nizom. 2014.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009-yil 7-avgustdagi 276-sonli buyrug'i bilan amalga kiritilgan hamda 2010-yil 25-avgustdagi 333-sonli buyruq bilan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan"Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida"gi Nizom.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish to'g'risida"gi 2009-yil 14-avgustdagi 286-sonli buyrug'i.
6. Karimov I.A. "O'zbekiston buyuk kelajak sari". "O'zbekiston". – Toshkent: 2001.
7. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: "O'zbekiston", 1997.
8. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. - T.: "O'zbekiston", 1997.
9. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – T.: "Ma'naviyat", 2009. - 176 b.
10. Mirzaahmedov H., Jumaxanov Sh. Magsitrlik dissertatsiyasini yozish va baholash bo'yicha uslubiy ko'rsatma. – Namangan, 2014. – 23 b.
11. Mirzaahmedov H. Mustaqil ishlarni tashkil etish va bajarish. Uslubiy ko'rsatma. – Namangan, 2016. - 18 b.
12. Bakalabr ta'lim yo'nalishi DTS va o'quv rejalari
13. Magistratura mutaxassisligi DTS va o'quv rejalari

MUNDARIJA

1	Ilmiy-pedagogik ishning maqsadi, vazifasi, predmeti va obyektlari	3
2	Magistratura mutaxassisligining ilmiy-pedagogik ish bo'yicha malaka talablari	4
3	Ilmiy-pedagogik ish mazmuni	5
4	Ilmiy-pedagogik ishni tashkil etish	9
5	Magistrlar bajaradigan IPIning mazmuni va semestrlar bo'yicha taqsimlanishi	10
6	Magistrlarning ilmiy-pedagogik faoliyatiga ajratilgan soatlarning semestrlar bo'yicha taqsimlanishi	20
7	Ilmiy-pedagogik ish natijalarini baholashning o'zlashtirish darajalari	24
8	Malakaviy amaliyot mazmuni va mexanizmi	27
9	Magistrantlarning malakaviy amaliyotini baholash	31
10	Ilovalar	33
11	Ilmiy-pedagogik ishni tashkil etish uchun me'yoriy hujjatlar va adabiyotlar ro'yxati.	34

